

DAVLATNING IJTIMOIY FUNKSIYASI – FUQAROLAR SOG‘LIQNI SAQLASH

Hamroyeva Achaxonim Shoirjon qizi

“sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi

Ubaydullayeva Sarvinoz Saydullo qizi

“sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

ushbu maqolada mualliflar tomonidan davlatning funksiyalaridan biri bo‘lgan ijtimoiy funksiyasi, aynan sog‘liqni saqlash masalasida mamlakatimizdagi qonunchilik me’yorlari, amalga oshirlayotgan islohotlar bilan bog‘liq fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat funksiyasi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy davlat, tibbiy sug‘urta, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik, farmatsevtika korxonalari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika.

Аннотация: в данной статье авторами были высказаны соображения относительно социальной функции государства, которая является одной из его функций, а именно в вопросе здравоохранения, в связи с законодательными нормами в нашей стране, проводимыми реформами.

Ключевые понятия: государственная функция, здравоохранение, социальное государство, медицинское страхование, санитарно-эпидемиологическое благополучие, фармацевтические предприятия, санитарно-профилактические учреждения, учреждения судебно-медицинской экспертизы, лекарственные средства, изделия медицинского назначения, медицинская техника.

Abstract:

In this article, the authors expressed their views on the social function of the state, which is one of its functions, namely in the issue of health care, in connection with legislative norms in our country, ongoing reforms.

Key concepts: state function, health care, welfare state, medical insurance, sanitary and epidemiological welfare, pharmaceutical enterprises, sanitary and preventive institutions, institutions of forensic medical examination, medicines, medical devices, medical equipment.

Ma'lumki, davlatchilik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlat qadim-qadimdan o'zining turli tuzumlaridan kelib chiqib, bir qator funksiyalarni bajarib keladi. Davlat funksiyalari ham turli davrlarda turli mazmun va ahamiyat kasb etib kelgan. Umuman olganda, davlat funksiyalari davlatning maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun ma'lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, shu sabab ham bu tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Shuni qayd etish lozimki, "maqsad", "vazifa", "funksiya" tushunchalari bir-biridan ajralmas bo'lib, ular davlatning mohiyatiga mos ravishda shakllanadi.¹

Davlat funksiyalaridan biri uning ijtimoiy funksiyasidir. Ijtimoiy funksiya bu aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, insonlarga munosib turmush tarzini yaratish, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash va madaniyatni rivojlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu funksiyasidan kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash borasida mamlakatimizda juda keng ko'lamli tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining 48-moddasida har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli bo'lishlari konstitutsion normada o'z ifodasini topdi.

Davlatni mazkur funksiyasi ushbu norma mohiyatidan ham ko'rinish turibdi, unga ko'ra davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy

¹ Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2019. – 46-b.





sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘radi.²

Bugungi kunda davlatimiz sog‘liqni saqlash sohasida o‘z qonunchiliga ega bo‘lib, bu sohani zamonaviy rivojlangan davlatlardagi imkoniyatlardan qolishmaydigan sharoitlar yaratish hamda malakali xodimlar bilan ta’minlash borasida davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bir qator qaror, farmon va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” qonuni haqida so‘z yuritish ayni muddaodir.

Mazkur qonunga muvofiq, fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari: fuqarolarning sog‘liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash; fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish³ dan iborat hisoblanadi.

Davlat fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasida o‘z faoliyatini amalga oshirishida quyidagi, ya’ni sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi; aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo‘la olishi; profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi; sog‘lig‘ini yo‘qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi; tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi kabi asosiy prinsiplarning hayotga tadbiq etilishni ta’minlashi shart.

Mazkur qonunda davlatning Konstitutsiyaning 48-moddasida ko‘rsatilgan normaning ijrosini ta’minlaydigan huquqiy mexanizm o‘zining yorqin ifodasini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig‘indisidan iborat yagona sog‘liqni saqlash tizimi amal qilishi e’tirof etiladi.

Qonunning 8-moddasiga muvofiq davlat sog‘liqni saqlash tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari, ularning shahar va tuman bo‘linmalari kiradi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo‘lgan va davlat sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruvi organlariga bo‘ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari,

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

³ O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” qonuni. <https://lex.uz/docs/26013>.

tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazadigan o'quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar kiradi. Ilmiy-tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika muassasalari va dorixonalar davlat sog'liqni saqlash tizimiga kiradi.

Bundan tashqari, sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari jumlasiga o'z mablag'lari, jalb etilgan mablag'lar va qonunchilikka muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar, shuningdek farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar kiradi. Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlariga taalluqli davolash-profilaktika muassasalari fuqarolarning ayrim guruhlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatadilar. Bunday xizmatlarning hajmi, ro'yxati, ularni ko'rsatish tartibi hamda kompensatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlarida faqat qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llanilishiga ruxsat etilgan profilaktika, tashxis qo'yish hamda davolash vositalaridan foydalilanadi. Shuning birga, sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari belgilangan tartibda tibbiy hujjatlarni yuritishi hamda statistika ma'lumotlarini taqdim etishi shart hisoblanadi.

Qonunga ko'ra aholining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi qonunchilikka muvofiq davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan sanitariya-gigiyena yo'sinidagi hamda epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishi orqali ta'minlanadi.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, davlatimiz o'zining konstitutsiyada belgilangan normalardan, jumladan o'zining "ijtimoiy davlat" ekanligidan va boshqa normalaridan kelib chiqib, aholining salomatligi, sog'liqni saqlash sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib aholining roziligidagi olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” qonuni. <https://lex.uz/docs/26013>.
3. Davlat va huquq nazariyasi / Mas’ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019. – 46-b.